

## 21. To'plamlar va ma'lumotlar



Yondosh mavzu:  
Axborot

To'plam, to'plam elementlari,  
jadvallar,  
Venn diagrammasi

1. Har bir qatordagi ortiqcha sonni toping. Qolgan sonlarni birlashtiruvchi umumiyl alomatni ayting.

- a) 78, 29, 297, 31, 10, 88.
- b) 400, 900, 1 000, 80 000, 7 000 000, 9 867 000, 3 000.
- c) 12, 234, 3 456, 12 345, 45 678.
- d) 456, 12, 9, 115, 171, 9 996, 4 215, 402.

2. Quyidagi elementlarni nomlang:

- a) yaxlit yuzliklar to'plami;
- b) 9 ga karrali ikki xonali sonlar to'plami;
- c) 15 dan kichik sonlar to'plami;
- d) tug'ilgan kuningiz sanasi raqamlari to'plami;
- e) dars uchun olinishi mumkin bo'lgan ballar to'plami.

3. Aziza daromad va chiqimlarini yozdi. Unga bir hafta ichida qancha pul tejaganini aniqlashga yordam bering.

	Daromad	Chiqim
Dushanba	15 000	6 000
Seshanba	12 000	7 000
Chorshanba	15 000	10 000
Payshanba	15 000	7 000
Juma	13 000	8 000
Shanba	0	4 000
Yakshanba	0	6 000



### Ma'lumotlar

**Ma'lumotlar – o'rganish va xulosalar chiqarish uchun to'plangan va qayd etilgan axborotlar.**



- 4.** Akmal o'zi o'qigan maktab o'quvchilari kinoning qaysi janrlariga qiziqishlarini aniqlash maqsadida so'rov nomasi o'tkazdi.  
O'quvchilarga faqat 1ta janrni tanlash talabi qo'yildi.

	Fantastika	Multfilm	Komediya	Sport
1- sinf	4	117	65	16
2- sinf	6	109	63	21
3- sinf	13	104	60	21
4- sinf	26	62	51	52

Yig'ilgan ma'lumotlardan foydalanib, quyidagi savollarga javob bering:

- a) To'rtinchi sinf parallelida necha nafar o'quvchi bor?
- b) Kim ko'p va necha marta ko'p: multfilm ixlosmandlarimi yoki ilmiy fantastika ishqibozlarimi?
- c) Har bir sinfda qaysi janr eng ommabop ekan?
- d) Akmal jami necha nafar o'quvchidan intervyu olgan?



- 5.** Akmal, Jasur va Sardor sportchilar fotosuratlarini yig'ishmoqda. Akmal 487 ta, Jasur Akmaldan 13 ta ko'p, Sardor esa Akmal va Jasur birgalikda qancha yig'gan bo'lsa, shuning yarmicha fotosurat yig'di. Bolalarda jami nechta fotosurat bor?



- 6.** Tenglamalarni yeching.

$$(x + 1\ 678) \cdot 14 = 133\ 471 - 18\ 965$$

$$(36\ 654 - y) : 3 = 1\ 909 + 7\ 992$$

## 21. To'plamlar va ma'lumotlar




7. Venn diagrammasini kuzating.

- a) A to'plamning;
- b) B to'plamning;
- c)  $A \cap B$  to'plamning elementlarini sanab bering.

A to'plam elementlarini qanday umumiyl alomat birlashtiradi?

B to'plam elementlarini-chi?

Ularning kesishish elementlarini-chi?



8. Sonlarni arab raqamlari bilan yozing va amallarni bajaring.

- a)  $XVII \cdot XII - MD : XXX \cdot (L - XIX)$
- b)  $IC + (XXII + IX) \cdot XV - CX : XI$



9. Rasmda ko'rsatilganidek, 6 ta teng tayoqchadan uycha yig'ing. Ikkita tayoqchaning o'rnnini shunday almashtiringki, natijada 5 ta kvadrat hosil bo'lsin.



10. Amallarning tartibini to'g'ri ko'rsatib hisoblang. Bu yerda qanday so'z yashiringan?

$$1\ 542 : 6 \cdot 8 + (74\ 500 : 50 - 140 \cdot 6) : 13 - 9\ 477 : 9$$

R 2 106

A 840

V 650

A 2 056

N 1 490

B 257

O 1 053

H 50



11. Aziza do'stlarining qanday tezlikda o'qishlari haqida ma'lumot to'pladi. Madina 3 minutda 255 ta so'z o'qisa, Akmal 4 minutda Madinadan 73 ta ko'p so'z o'qiydi. Azizaning o'zi 435 so'zdan iborat matnni 5 minutda o'qib chiqdi.

Kimning o'qish tezligi eng yuqori?